



TEMURIYLAR DAVRIGA OID MEMORIY OBIDALAR

Sharipova Durdona
Nizomiy nomidagi TDPU
Tarix fakulteti 202-guruh talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada temuriylar davri memorchiligining o'ziga xos xususiyati, qurilish uslubi hamda hozirgi kunda tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Bibixonim madrasasi, ,Go'ri amir maqbarasi , Ulug'bek madrasasi Va rasadxonasi,Shohi zinda,Sayid Baraka, Oqsaroy,Hazrati imom, Ravoq, Koshin, YUNESKO, " Jahon madaniy merosi

O'zbekiston dunyoga mashhur diyor bo'lib, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan zamin hisoblanadi, Shuningdek, bu hududda insoniyat tarixiy madaniyatining durdonalari hisoblangan ko'plab betakror, mahobatli tarixiy me'moriy obidalar mavjud, hozirgi kunda ushbu tarixiy obidalar saqlanib kelmoqda.Ularning juda ko'p qismi allaqochon turizm markazi bo'lib urugrdi.O'zbekiston Respublikasi hududida me'morchilik va binokorlik qadim zamonlardan miloddan avvalgi III minginchi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, o'n minginchi yillardan boshlangan.Shundan so'ng bu tarixiy diyor asrlar mobaynida turli me'morchilik san'ati obidalari maskaniga aylandi. Jang-u jadallar vaqtida anchasi barbod bo'ldi. XIV asrdan me'morchilik yana rivojlana boshlagan. Arxitekturada yangi uslubda (masalan, Bayonqulixon maqbarasi). O'sha davrning me'morchilik namunalari Shohi Zinda kompleksida saqlangan. Bu davrda me'morchilik rivojlanishiga Amir Temur va uning avlodlari o'zlarining ulkan beqiyos hissalarini qo'shgan.

Biz tarixdan shuni guvohi bo'lamziki, har bir hukmdorning kuch –qudrartini uning olib borgan siyosati hamda barpo etgan imoratlari bilan belgilangann. Temuriylar sulolasasi asoschisi Amir Temur : "Agarda kimda kim bizni qudratimizga shubha qilsa, biz qurdirgan imoratlarga boqsin!" bundan anglasak bo'ladiki, Temur yurtida madaniyat , marifatga keng yo'l ochdi. O'sha paytda dunyoda o'zining go'zalligi va maftunkorligi bilan ajralib turadigan shaharlarni nomini sultanatidagi qishloqlar nomiga qo'ydi. Shu qatorda o'z davri va bu kun uchun ham mo'jiza bo'ladigan imoratlar barpo qildi. Amir Temur 1336 yil 9 aprel kuni Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or(Yakkabog') qishlog'ida tug'ilgan. Bizga Ovropada Tamerlan (forscha Temurlang—Oqsoq Temur) nomi bilan ma'lum Amir



Temur 35- yilga yaqin vaqt ichida Osiyon tiz chuktirdi va tarixan qisqa muddat umr ko'rgan buyuk sultanat barpo etdi, uning poytaxti Samarqandni tengsiz me'moriy obidalar bilan bezatdi¹. emur sultanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. U ishni eng avvalo mo'g'ullar istilosidan so'ng 150 yil mobaynida vayron va qarovsiz yotgan shaharning mudofaa devorlarini tiklashdan boshlaydi. Osma suv yo'li («Juyi Arziz»)ning yakson etilishi tufayli suvsiz qolgan Samarqand mahallalariga Zarafshon daryosidan suv keltiradi. Shaharda «Hisori», qal'a, ulug'vor inshoatlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi moy gumbazning balandligi oshdi.. Amir Temur o'z poytaxtiga aylantirgan Samarqand shahrida olib brogan memorchilik faoliyati bizning diqqatimzni tortmasdan qolmaydi.O'sha davrda Samarqand eng boy shahrlardan biri sifatida ham ravnaq topa boshladi. Samarqandning boyligi haqida:"Bu yurt don-dun, may, meva cheva,parranda go'shti, boshqa xar xil go'sht ,qo'yinki, hamma narsaga boydir...bir juft semiz qo'yning narxi 1 dukat². Amir Temur mashhur Shohizinda qabristonini ham o'zining o'tkir zehni va ziyrak e'tiboridan chetda qoldirmaydi ("Shohizinda" — "tirik shoh" ma'nosini beradi).

Undagi maqbaralarning eng qadimiysi — Qusam ibn Abbos maqbarasidir. Qusam ibn Abbos islam dinining asoschisi, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchasi bo'lgan Abbasning surriyoti edi, Qusam ibn Abbos isломни targ'ib va tashviq qilishda ishtirok etgan buyuk shaxslardan bo'lgan. U shu maqsadda 676 yilda arab istilochilari bilan birgalikda Samarqandga kelgan. Shu yerda, afsonalarda ayttilishicha, nomoz o'qib turgan paytlarida kofirlar hujum qilib uni o'ldirgan ekanlar. Amir Temur Qusam ibn Abbos qabri ustiga yangi dahma o'rnatgan. Bu dahma O'rta Osiyo qadimgi kulollari ishlarining eng yaxshi namunalaridan biridir. «Shohizinda» ansamblida Temur va temuriylar qurdirgan maqbaralarning soni 20 dan oshadi. «Shohizinda» ansamblida Amir Temurning xotinlari tomonidan qurilgan maqbaralar va boshqa binolar ham kattagina o'rinni egallaydi.Amir Temur davrida qurilgan va dovrug'i olamni tutgan tarixiy

¹ЛЮСБЕН К. АМИР ТЕМУР САЛТАНАТИ. ТОШКЕНТ «МАЬНАВИЯТ» -1999 Б.6

² Rui_Gonsales_de_Klavixo_Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) Toshkent O'zbekiston 2010. B.15



obidalardan yana biri bu Go‘ri Amir maqbarasidir. Bu muhtasham binoning o‘z qurilish tarixi bor. Amir Temur nabirasi Muhammad Sultonni (Jahongirning og‘li) juda sevar edi. Muhammad Sulton 1403 yilda, 27 yoshida shamollab vafot etadi. Uni Samarqandga olib kelib dafn marosimi o‘tkazadilar³. Amir Temur 1404 yilning kuzida safardan qaytgach, nabirasi Muhammad Sulton xotirasi uchun maqbara qurishga farmon beradi. Ushbu farmonda maqbarani o‘n kun mobaynida qurib tugallashga buyruq berilgandi, Haqiqatdan ham, maqbara o‘n kunda batamom qurib bitkaziladi. Bunday hashamatli, katta va baland binoni o‘n kunda qurib bitkazish aqlga sig‘maydigan bir voqeа bo‘lib, Amir Temurning kuch-qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyish etgan.

Amir Temur mana shu yerda Muhammad Sulton Mirzo xotirasiga va Alloh yo‘liga atab katta xudoyi marosimi o‘tkazadi hamda o‘sha davr mashhur din peshvolari tomonidan Qur’oni Karimdan oyatlar o‘qittiradi. Maqbara devorlaridagi rang-barang koshinlar orasida uni qurgan usta Muhammad ibn Maxmud Isfaxoniyning nomi ham yozilgan. 1405 yilda Amir Temur vafot etgach, uning o‘zi ham shu yerga, nevarasining yoniga dafn etiladi (va maqbara «Go‘ri Amir maqbarasi» deb nom oladi). Shundan so‘ng ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Muxdmmad Sulton Mirzo, Amir Temurdan tashqari Sohibqironning o‘g‘illari Umarshayx Shohruh va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug‘bek va Temurning piri Sayyid Barakaning ham sag‘analari qo‘yilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Amir Temurdek inson o‘z qabrini ustozni Sayyid Barakaning oyog‘i uchlariga qo‘yishni vasiyat qilgan ekan. Vasiyat binoan Temur Sayyid Barakaning oyog‘i tarafga dafn etilgan. Samarqandning tarixiy markaziga tashrif buyurganingizda, shubhasiz, temuriylar sulolasiga mansub kishilar dafn etiladigan maqbara – Go‘ri Amirning muhtasham binosiga ham borasiz. Katta devorlar orqasida ichki asosiy xonalardan birida buyuk sarkarda dafn etilgan. Katta xonaning o‘rtasida ko‘plab sirlar va afsonalarga boy Sohibqiron sag‘anasi ustiga qo‘yilgan nefrit qabrtosh bor.

Go‘ri Amir yoki Amir Temur maqbarasi (14-asr oxiri — 1405-yil) — Samarqanddagi me’moriy yodgorlik. Xalq orasida Go‘ri Amir yoki Go‘ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o‘g‘illari Umarshayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va boshqalar) dafn etilgan. Boburning ta’kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton

³ Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “Xalq so‘zi” gazetasi, aprel, 2021.



Mirzo Samarqand qal'asi yaqinida Toshqo'rg'on — tomonda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo'lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon beradi. Maqbara Madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan. Amir Temur har bir g'alaba sharafiga birorta me'moriy obida qurdirgan.⁴

BIBIXONIM MADRASASI : Hindiston ustidan g'alabasi sharafiga Bibixonim madrasasini qurdirgan. Bibixonim madrasasi sharq ananalarni o'zida mujassamlashtirgan "chor" uslubida qurilgan. Bibixonim madrasasi Bibixonim jome masjidining kirish peshtog'i qarshisida joylashgan. Lekin jome masjididan oldin qurilgan. Saroy tarixchisi G'iyosiddin Alining "Amir Temur 1399-yil 10-mayda madrasada to'xtab o'tganligi" haqidagi ma'lumoti shundan dalolat beradi. Tarixnavis Fasiq Havofiy ta'kidlashicha, Amir Temur jome masjidi qurilishini kelib ko'rarkan, me'moriy majmuada mutanosiblik buzilganligi—Madrasa peshtog'i va ayvoni jome masjidga nisbatan balandroq va qiyaroq bo'lib qolganligi uchun darg'azab bo'ladi va me'morlar (Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald)ni jazoladi. Arxeologik qazishmalar ham shu nomutanosiblikni tasdiqlaydi. Bino peshtog'i qanchalik mahobatli bo'lmasin, uning qarshisidagi binoga monand emasligi ko'zga tashlanib qolgan. Devorlariga manzara naqshin gullar, serhasham bezaklar ishlangan. 4 tarafidagi keng derazalar – tobodonlar va eshiklar orqali xonaqoh juda yaxshi yoritilgan. Ostidagi tagxona -sardoba esa kichikroq bo'lib, devorlariga yirik kulrang toshtaxtalar bilan bezatilgan. Tagxonada bir necha tosh tobutlar saqlangan.

BIBIXONIM MASJIDI: Bibixonim jome masjidi (Amir Temur jome masjidi)

Samarqanddagi me'moriy yodgorlik (1399—1404). Amir Temurning katta xotini **Bibixonim** (asli Saroymulk xonim) **nomi** bilan bog'liq. Amir Temur farmoni bilan **qurilgan**. **Masjidni** kurgan **usta** va **me'morlarning** nomlari noma'lum. Masjid **hovlisining** sahni 63,8x76,0 bo'lib **to'rt** tomondan **ravoq va peshtoklar** bilan o'ralgan. Uning umumiyligi sahni 167x109 m, burchaklarida baland **minoralar** bo'lган. **Zilzilalar** ta'sirida astasekin yemirilib vayron bo'lган, faqat shimoli-g'arbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. **Poydevori harsang toshdan, devorlari pishiq g'ishtdan** ishlangan (qalinligi 4,5 m).⁵

Amir Temurdan keyin Ulug'bek ajoyib imoratlar barpo qildi. Bulardan biri Ulug'bek madrasasi edi. Ulug'bek madrasasi — Samarqanddagi me'moriy

⁴ Akbar Zamonov. "Tarix fanidan olimpiiadaga tayyorlanamiz ". Toshkent -2019-yil.

⁵ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



yodgorlik. Registon ansamblining g‘arbida joylashgan. 2 qavatlari, to‘g‘ri to‘rtburchak tarxli Bosh tarafi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamatida keng toqili ravoq uning 2 yonida guldastalar bor. Ravoq tepasidagi yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklari o‘ziga xosdir. Guldasta tepasi muqarnas, sharaflar bilan yakunlangan. Peshtoq ravog‘i cheti morpech shaklida, tokchasi dagi namoyonlar o‘ziga xos uslubda pardozlangan..

Ulug‘bek rasadxonasi – Samarqanddagi 15-asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri, ko‘hna astronomik kuzatuv muassasasi. Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428 — 29 yilda Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalar, Xususan, (“Boburnoma”)ga ko‘ra, balandligi 30,4 m dan iborat 3 qavatlari qilib qurilgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblar bo‘lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadrantning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol Tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Mirzo Ulug‘bekning eng yirik astronomik asari “Ziji Ko‘ragoniy” rasadxonada yaratilgan. Ulug‘bek rasadxonasining arxeologik qoldiqlari 1908-yil V.L. Vyatkin rahbarligida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan. Xususan, bu yerda diametri 48 m keladigan, qalinligi bir g‘isht bo‘lgan aylanma devor borligi va uning markazida qo‘shaloq yoydan iborat ulkan bosh qurilmaning qoldiq qismlari aniqlangan. Uning katta zallari, turli katta – kichik xonalari bo‘lgan. Boburning yozishicha, Ulug‘bek rasadxonasining sirti koshin va sirli parchinlar bilan bezatilgan.

1964-yil Ulug‘bek rasadxonasi yonida Ulug‘bek muzeyi ochilgan. Ulug‘bek rasadxonasining asl ko‘rinishi, ichki tuzilishi, bosh qurilmasi haqida O‘zbekiston va chet el olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ulug‘bek vafotidan song deyarli hech qanday bunyodkorlik ishlari olib borilmagan. Tóxtovsiz janjallar, taxt talashishlar oqibatida mavjud yodgorliklar ham vayrona holatga kelgan.

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me’morchiligidagi bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug‘bek davri me’morchiligidagi bezakda ko‘p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san’atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan. Koshin qatamlarida tasvir mavzusi kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma’noga ega. Temur va Ulug‘bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo‘lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko‘k va zarhal ranglar ustun bo‘lib, dabdabali naqshlar



ishlangan, Ulug‘bek davrida Xitoy chinnisiga o‘xshash oq fondagi ko‘k naqshlar ko‘p uchraydi. Temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa, Ulugbek bobosi Temur kabi mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrda bir qancha masjid, madrasa, honaqoh, hammom, sardoba va karvonsaroylar quriladi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etiladi. Avvalo u Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolarni oxiriga yetkazadi. Go‘ri Amirning kirish peshtoqi, Shohizinda ansamblidagi ba’zi maqbaralar, Shahrisabzdagi Ko‘kgumbaz masjidi, Yassidagi Ahmad Yassaviy qabri ustiga qurilgan binolar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

- 1.Rui_Gonsales_de_Klavixo_Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406) Toshkent O’zbekiston 2010. B.15
- 2.Hakim Sattoriy. Amir Temur ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. “Xalq so‘zi” gazetasi, aprel, 2021.
- 3.Akbar Zamonov. “Tarix fanidan olimpiiadaga tayyorlanamiz “.Toshkent -2019-yil
- 4.ЛЮСБЕН К. АМИР ТЕМУР САЛТАНАТИ. ТОШКЕНТ «МАЊНАВИЯТ» - 1999 Б.6